



# XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

## EMOTSIONALLIK TIL BIRLIKLARINING FONETIK XUSUSIYATLARI

**Bayrieva Mariyam Jangabayevna**  
Chet tillari fakulteti assistent o'qituvchisi,  
Qoraqalpoq davlat universiteti  
[mariyam.bayrieva@bk.ru](mailto:mariyam.bayrieva@bk.ru)

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15179263>

***Annotatsiya:** Emotsional til birliklarining fonetik xususiyatlarini o'rganish, tilning emotsional va ekspressiv jihatlarini tushunishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu dissertatsiya faslida emotsional til birliklarining ifodalanish usullari va tildagi roli ko'rib chiqiladi. Emotsional mazmuni ifodalovchi fonetik vositalar (intonatsiya, ton, temp, ritm, ta'sirli takrorlash va boshqalar) tilning emotsional jihatlarini ifodalashda asosiy vosita sifatida o'rganiladi. Shu bilan birga, emotsional til birliklarining semantik-fonetik aloqalaridagi o'ziga xos xususiyatlari va ularning nutqdagi funksiyalari tahlil etiladi. Tanqidiy va amaliy jihatdan bu mavzu tilshunoslikda emotsional nutqni o'rganishning yangi yo'nalishlarini ochishda muhim ahamiyat kasb etadi.*

***Kalit so'zlar:** nutq, fonetika, emotsiya, intonatsiya, kommunikantlar, undov so'zlar.*

Fonetik vositalar qatoriga intonatsiya ham kirib, u orqali hayratlanish, ajablanish, quvonch, qayg'u, xavotir, g'azab va boshqa hissiyotlar ifodalanadi. Intonatsiya tovushlarning uyg'unligi, ovoz kuchi, so'zlash tempi, tembr xususiyati va boshqa fonetik belgilar majmuasi hisoblanadi. Og'zaki nutqning ajralmas strukturaviy qismi bo'lib, tinglovchiga ta'sir qilishning kuchli vositalaridan biridir [1]. Dialog jarayonida ishtirokchilar so'z mazmunidan ko'ra, intonatsiyaga ko'proq e'tibor berishadi, chunki ovozning ohang o'zgarishlari suhbatni tushunishda muhim rol o'ynaydi.

Ko'pincha og'zaki nutqdagi fikrlarning haqiqiy ma'nosini faqat intonatsiya orqali tushunish mumkin. Hattoki til bilmagan shaxslar ham intonatsiya yordamida hissiyotlarni anglash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Masalan, yuqori ton bilan aytilgan so'zlar quvonchni, past ton esa qayg'uni anglatishi mumkin.

Odam hissiyotlarini ifodalashda tovush tarkibi yoki so'z birliklarining ma'noli va intonatsion bog'lanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu birikmalar sintagma deb ataladi. Sintagma bir so'zdan iborat bo'lishi yoki butun bir gapni tashkil etishi mumkin.

Sintagmalar odatda quyidagi shakllarda bo'lishi mumkin:

Leksik sintagma – ajratilgan mustaqil so'z yoki ibora (masalan, "Muborak bo'lsin!").

Sintaktik sintagma – gap tarkibida intonatsion jihatdan ajralib turuvchi bo'lak (masalan, "Ha, senmi?!").



# XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

*mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani*

Prosodik sintagma – intonatsion birlik sifatida o'ziga xos ohang va pauzaga ega bo'lgan iboralar.

Sintagma tuzilishi intonatsion birliklar bilan shakllanib, uning tarkibi past-balandlik, gapning sintaktik tuzilishi va leksik mazmuni bilan bog'liq bo'ladi. Sintagmalarning fonetik xususiyatlarini o'rganish emotsional nutqni tushunishda muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Undov so'zlar emotsional nutqda muhim rol o'ynaydi. Ular ba'zan onomatopeya sifatida ham tavsiflanadi. Masalan:

- **Ingliz tilida:** "oh", "tut", "pooh"
- **O'zbek tilida:** "oh", "voy", "hay"
- **Qoraqalpoq tilida:** "ay", "tuv", "pah"

Shuningdek, ba'zi undov so'zlar kommunikativ ma'noga ega bo'lib, intonatsiya yordamida turli hissiyotlarni yetkazishi mumkin. Ushbu so'zlar suhbat jarayonida muloqotning samimiyligi, rasmiy yoki norasmiy tus olishini belgilaydi. Masalan, intonatsiyaning ohangiga qarab undov so'zlar hurmat, ajablanish, e'tiroz yoki quvonchni ifodalashi mumkin. Ayrim hollarda esa, ularning fonetik xususiyatlari nutqning ta'sirchanligini oshirishda asosiy rol o'ynaydi:

- **Ingliz tilida:** "How are you?!", "Good Morning!"
- **O'zbek tilida:** "Yaxshimisiz?!", "Nima gap?"
- **Qoraqalpoq tilida:** "Nima qilib?", "Qanday?!"

Tadqiqotchilar, jumladan, K. Byuler undovlarni tilning leksik tarkibiga kiritib, ularni "o'zgarimas deiktik belgilar" deb ataydi [3]. Ularning lingvistik maqomi bahsli bo'lsa-da, ularning semantik va pragmatik jihatlarini chuqur o'rganish zarur. Til fonetik jihatdan turli vositalar orqali emotsional mazmuni ifodalash imkoniyatiga ega. Intonatsiya, ton, temp, ritm kabi omillar muloqot jarayonida hissiyotlarni yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, undov so'zlar va sintagma tuzilmalari emotsional nutqni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Kelajak tadqiqotlarida emotsional til birliklarining fonetik jihatlarini neyrolingvistika va eksperimental fonetika metodlari asosida o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, fonetik vositalarning semantik va pragmatik jihatlarini yanada chuqur tahlil qilish imkonini beradi.

## Adabiyotlar ro'yxati:

1. Авдони́на Л.Н. «Ресторанные» мотивы в поэзии Серебряного века // Русская речь. – 2013. – № 1. – С. 19-24.
2. Вежбицкая А. Семантические универсалии и описание языков. М., 1999. - С. 611.
3. Бюлер К. Теория языка. Репрезентативная функция языка. Пер. с нем. /I Общ.ред. и коммент. Т.В. Булыгиной, вступ.ст. Т.В. Булыгиной и А.А. Леонтьева. М.: Изд.группа «Прогресс», 2000. - 528с